

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA SHAXLO SHUXRAT QIZI

JORJ ORUELL VA MUROD MUHAMMAD DO`ST ASARLARIDA
JAMIYAT KONSEPSIYASI VA KO`PQATLAMLI TASVIR

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Qurbonova Shaxlo Shuxrat qizi

Jorj Oruell va Murod Muhammad Do`st asarlarida jamiyat konsepsiyasi va ko`pqatlamli tasvir..... 3

Kurbonova Shakhlo Shukhratovna

The concept of society and multi-layered image in the works of George Orwell and Murad Muhammad Dost..... 23

Курбанова Шахло Шухратовна

Концепция общества и многослойный образ в творчестве Джорджа Оруэлла и Мурада Мухаммеда Доста 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOVA SHAXLO SHUXRAT QIZI

JORJ ORUELL VA MUROD MUHAMMAD DO`ST ASARLARIDA
JAMIYAT KONSEPSIYASI VA KO`PQATLAMLI TASVIR

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2569 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **G'aniyev Ilhom Muzaffarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xajiyeva Feruza Melsovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Nasirov Azimiddin Normamatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 28 » dekabr soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (380 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 15 » dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil « 15 » dekabr dagi 23-35 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi ilg'or tajribasidan ma'lumki, inson va jamiyat munosabati, ular orasidagi ijtimoiy-ruhiy bog'liqliklar, ziddiyatlar tasviri, inson qalbi kechinmalari jamiyatning global muammolari bilan bog'liq asarlar yaratish imkoniyatlarini kengaytirganligi sababli azaldan ayricha qiziqish uyg'otib kelmoqda. Badiiy diskurs ta'minotida ijtimoiy g'oyalar, davr va siyosat vujudga keltirgan omillarni turli millat ijodiyot vakillarining asarlarini inson va jamiyat munosabatlari rakursida kuzatish, shaxsning takomili yoki tanazzulidagi ijtimoiy illatlarni yoritishning ijtimoiy qirralarini tekshirish jamiyatning madaniy taraqqiyotini, badiiy-adabiy tafakkurini, ma'naviy-axloqiy negizlarini, umuminsoniy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida turli janrdagi asarlar tabiati va imkoniyatidan kelib chiqib, badiiy ijod jarayonining turfa davriy bosqichlarida inson va jamiyat munosabati keng ko'lamli tadqiqotlarda atroflicha tahlil etilgan. Ingliz va o'zbek adabiyoti namunalarini qiyosiy-tipologik tadqiq etish XX asrning taniqli namoyondalaridan biri, o'zbek kitobxonlariga nomi va asarlari bilan XX asr boshlaridagina yaqindan tanishish imkoni bo'lgan adib Jorj Oruell va zabardast o'zbek adibi sifatida jahon adabiyotining eng yuksak na'munalari bilan bo'ylashadigan asarlar muallifi Murod Muhammad Do'st ijod uslubining poetik taraqqiyot xususiyatlarini, asarlaridagi o'z davrlarining badiiy tarixini, yorqin va unutilmas milliy qahramonlar obrazini, milliy hayot materialida umuminsoniy muammolarni badiiy talqini, yorqin individual uslubi, obraz tanlash va uni tasvirlash mahoratini kuzatish qiyosiy adabiyotshunoslik sohasining ilmiy talqin doirasini kengaytirish, tarixiy asarlarda badiiy zamon konsepsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda inson huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlari muhim qadriyat darajasiga ko'tarilgan yangi O'zbekiston davlatini qurish borasida jiddiy tashabbuskorlik amalga oshirilayotgan bugungi kunda badiiy adabiyot vakillari ijodi, ularning asarlarida inson fenomenini o'rganishga ilmiy muhitda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi ijtimoiy reallik, boshqa sohalarida bo'lgani kabi, adabiyotshunoslik fanida ham o'ziga xos yondashuv zaruratini keltirib chiqaradi. "... Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Shu ma'noda, XX asr adabiyotida janr tipologiyasini shartlantirgan tendensiyalarning rolini zamonaviy – antropotsentrizmga yo'naltirilgan – adabiyotshunoslik qonuniyatlari rakursida o'rganish soha rivojini ta'minlashga qaratilgan ilmiy yutuqlarni yangicha talqin qilish, dunyo ijod sivilizatsiyasida g'arb va sharq adabiy hamkorligida yuzaga kelgan tutash ildizlarni ilmiy hamjamiyatga tanitishda ko'p qirrali imkoniyatlarni ochib beruvchi yangi yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

¹Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // Xalq so'zi, 2017 yil, 4 avgust.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonlari va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Asarlari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan har ikki adib ijodi adabiyotshunoslikda turli darajalarda o‘rganilgan. Turli darajalarda deyilishining sababi shundaki, jahonshumul adib J.Oruell ijodiga oid tadqiqotlar juda ko‘p². Uning badiiy adabiyot va mustabid siyosatni o‘zida birlashtirgan ijodi ilk davrlaridayoq turli fan sohalari mutaxassisleri: adabiyotshunos va faylasuf, tarixchi va sotsiolog, siyosatshunos va psixologlarning e‘tiborini o‘ziga qaratib kelgan, qizg‘in bahsu munozaralarga sabab bo‘lgan. Jorj Oruell ijodi SSSRdagi sotsializmning tanqidchisi sifatida sobiq Sovet Ittifoqida ta‘qiqqa uchragan edi. Shuning uchun ham adib asarlari sho‘ro davlati qulagandan keyingina MDH davlatlariga kirib kela boshladi. Uning ijodiga bag‘ishlangan bir qancha dissertatsiyalar maydonga keldi.³ J.Oruell ijodini o‘rganish borasida,

² Crick B. George Orwell: A Life. Penguin books, 1982. - 655 p.; Hopkinson, T. George Orwell./Rev. ed./ London, 1953. - 40p.; Безансон А. Оруэлл или Оправдание зла // Безансон А. Извращение добра. – М.: МИК, 2002. – 207 с.; Зверев А.М. О старшем брате и чреве кита // Оруэлл Дж. 1984 и эссе разных лет. – М.: Прогресс, 1989; Зверев А. М. «Скотный Двор» Джорджа Оруэлла//Энциклопедия мировой литературы. – СПб.: Невская книга, 2000. – 656 с.; Зинкевич Н.А. Биография Джорджа Оруэлла [Текст]: / Н.А. Зинкевич. – М.: «Цитадель», 2001; Кабанова И.В. Документальное и вымышленное в автобиографии: Джордж Оруэлл и Сирилл Конуэлл. – 404 с.//Филологический класс, 2012. – № 12. – С. 107 – 112; Мосина В.Г. Антитоталитаристская тема творческой биографии Дж. Оруэла: испанская тема//Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия 11: Социология. Реферативный журнал, 1997. – № 3. С. 103 – 111; Недошивин В.М. Можно ли погасить звёзды? Проза отчаяния и надежды Джорджа Оруэлла// Оруэлл Дж. Проза отчаяния и надежды: Роман, сказка, эссе. Пер. с англ. – Л.: Лениздат, 1990. – 429 с.; Фатула В. Новояз: об источниках оруэлловского канона. – М., 2003. – 45с.; Фельштинский Ю.Г., Чернявский Г.И. Джордж Оруэлл (Эрик Блэр): Жизнь, труд, время. – М.: Книжный клуб, Книговек, 2014. – 592 с.

³ Мосина В. Проза Джорджа Оруэлла: творческая эволюция. – Дисс. ... докт.филол.наук. – М., 2000. – 619 с.; Кабанова И. Проблема жанровой типологии в английской прозе 1930-х гг. – Дисс. ... докт.филол.наук. – М., 2001. – 358 с.; Аничкина Н. Индивидуальные стилистические особенности эссе Дж.Оруэлла и проблема их сохранения при переводе на русский язык. – Дисс. ... канд.филол.наук. – М.,

ayniqsa, V.Nedoshivin⁴ hamda V.Chalikova⁵ning tadqiqotlari e'tiborga molik.

Murod Muhammad Do'st sermahsul ijodkor bo'lmasa-da, zabardast o'zbek adibi sifatida jahon adabiyotining eng yuksak na'munalari bilan bo'ylashadigan asarlar yaratdi. Adib nasrda o'z davrining badiiy tarixini, yorqin va unutilmas milliy qahramonlar obrazini yaratdi; milliy hayot materialida umuminsoniy muammolarni badiiy talqin etdi; o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib polifonik tasvir usuliga qo'l urdi; yorqin individual uslub o'laroq tanildi. Umuman, Murod Muhammad Do'st asarlari jahon miqyosida o'zbek adabiyotining "tashrif qog'ozi" bo'la oladi. San'at asarining muvaffaqiyatini, albatta, son emas, sifat hal qiladi. Murod Muhammad Do'st ijodi turli xil tadqiqotlarda⁶, zamonaviy nasr muammolariga bag'ishlangan dissertatsiyalarda⁷ ma'lum darajada o'rganildi. Ammo, hech shubhasizki, Murod Muhammad Do'st asarlari alohida dissertatsiyalar doirasida o'rganilsa ham, jahon adabiyoti durdonalariga qiyosan

2002. – 189 с.; Борисенко Ю. Риторика власти и поэтика любви в романах- антиутопиях первой половины XX века (Дж.Оруэлл, О.Хаскли, Е.Замятин). – Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ижевск. 2004. – 24 с.; Окс М. Вымышленные языки в поэтике англоязычного романа XX века (на материале романов «1984» Дж.Оруэлла, «Заводной апельсин» Э.Бёрджесса и «Бледный огонь» В.Набокова). – Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Воронеж, 2005. – 24 с.; Шишкина О. Пространственно-аудиальный код английского романа-антиутопии (на материале романов У.Голдинга «Повелитель мух», Дж.Оруэлла «1984», О.Хаскли «Дивный новый мир»). – Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 2019. – 23 с.

⁴ Недошивин В. Джордж Оруэлл. Непрístupная душа. – М.: АСТ, 2019. – 344 с.; Недошивин В. Джордж Оруэлл. Проза отчаяния и надежды. Роман. Сказка. Эссе. (пер. Д.Иванова и В.недошивина, статья В.Недошивина). – Л.: Лениздат, 1990; Недошивин В.М. Джордж Оруэлл: 2013//Российская газета, 2013. – 6111 (135); Недошивин В., Чаликова В. Неизвестный Оруэлл // Иностранная литература. 1992. № 2. С. 215-225.

⁵ Чаликова В.А. «Вечный год». Послесловие к публикации романа Джорджа Оруэлла «1984»// Новый Мир. – М., 1989. – № 4. – С. 128 – 130; Чаликова В.А. Неизвестный Оруэлл//Иностранная литература. – М., 1992. – № 2. – С. 215 – 222; Чаликова В.А. Джордж Оруэлл: философия истории//Философские науки. – М.: Институт научной информации по общественным наукам АН СССР, 1989. – 12. – С. 45 – 46; Чаликова В.А. Об одной лингвистической утопии. Социокультурные утопии. – М., 1985; Чаликова В.А. Предсказания Дж. Оруэлла и современная идеологическая борьба. – М.: РАН, 1986; Чаликова В.А. Комментарии к «1984» и эссе разных лет// Оруэлл Дж. 1984. Эссе разных лет. – М.: Прогресс, 1989. – 384 с.

⁶ Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Тошкент: Маънавият, 1998.; Йўлдошев Қ. Модернизм: илдиз, моҳият ва белгилар // Ёшлик, 2014, № 9. – Б. 26-33; Содиқов С. Роман ва танқид. – Тошкент: Фан, 2008; Қуронов Д. Адабий ўйлар. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2016; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2016; Улуғов А. Қалб қандили. – Тошкент: Akademnasg, 2013; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Шу муаллиф. Назарий поэтика масалалари (Муаллиф. Жанр. Хронотоп). – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2015.

⁷ Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Солижонов Й. XX асрнинг 80–90-йилларида ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003; Холмуродов А. Ўзбек киссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги) Филол. фан. докт ...дис. – Т.: 2008; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек киссачилигида психологизм: фил. фан. номз. ...дис. – Т.: 2012; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадий услубмуаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонкул киссалари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев, Назар Эшонкул киссалари мисолида): Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2018; Раджабова Ф. Истиқлол даври ўзбек киссачилигида услуб ва поэтик тил: Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. –Тошкент, 2018; Тошпўлатов А. Ўзбек адабиётида новелла жанри ва унинг бадийати (А.Қаҳҳор, Ш. Холмирзаев, Н. Эшонкул ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018; Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. –Тошкент, 2018; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек киссачилигидааёл руҳиятининг бадий талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

o'rganilsa ham nafaqat adabiyotshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya, tarix, psixoanaliz kabi fan sohalari uchun ham e'tiborli xulosalar bera oladi.

Ishda V.Jirmunskiy, V.Vinogradov, R.Bart, M.Baxtin, Yu.Borev, M.Xrapchenko, L.Chernes, A.Kuzmin, G.Pospelov, V.Xalizev, J.Vudkov, P.Stanskiy, V.Avraams, B.Krik, M.Shelden, Djey Teylor, S.Lukas, G.Bovker⁸ kabi jahon, shuningdek, I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, M.Xolbekov, B.Nazarov, H.Boltaboev, D.Quronov, B.Karimov, I.G'aniev, A.Qosimov, U.Jo'raqulov⁹ kabi o'zbek olimlarining ishlaridan nazariy asos sifatida foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti 2017-2020 yillarda mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Adabiyotshunoslikning nazariy masalalari va folklorshunoslik muammolarini tadqiq etish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz adibi Jorj Oruell va o'zbek yozuvchisi Murod Muhammad Do'st asarlari asosida jamiyat konsepsiyasi va ko'pqatlamli tasvir bilan bog'liq mushtarak va o'ziga xos jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jorj Oruellning jahon nasri taraqqiyotida tutgan o'rnini ilmiy baholash va uning o'zbek madaniy muhitidagi o'rnini (tarjima, tadqiqot) va adabiy ta'sir masalasini o'rganish;

adib ijodi XX asrda yuz bergan ijtimoiy-tarixiy voqealarga ilg'or fikrli ziyoli, ijodkor shaxsning munosabati natijasi o'laroq maydonga kelganini asoslash;

Jorj Oruell ijodining jahon adabiyotiga ta'sirini o'rganish hamda yozuvchi uslubining o'ziga xosligini ochib berish;

Jorj Oruell asarlarining o'zbekcha tarjimalari, adib ijodining tahlili va milliy prozaga g'arb badiiy tafakkuri ta'siri masalalarini Murod Muhammad Do'st ijodi misolida o'rganish;

bir tarixiy voqelik – sotsialistik jamiyat voqeligining ikki adib ijodidagi badiiy tasvirini qiyoslash;

⁸ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – 266 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1979. – 85 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – 207 с.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979. – 422 с.; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – М.: 1995. – С. 78-196; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – М.: 1987. – 407 с.; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – 484 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 404 с.; Лукич Д. Теория романа. – Варшава, 1963. – 229 с.; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М.: Советский писатель, 1981; Пospelov Г. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978; Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. Рене Уэллек, Остин Уоррен. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. – 328 стр.

⁹ Сulton И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986; Қўшжонов М. Сайланма. – Т.: Шарк, 2018; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарк, 2004; Normatov У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарк, 2007; Расулов А. Танкид, талкин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Т.: Ўқитувчи, 1983; Болтабоев Ҳ. Наҳр ва услуб. – Т.: Фан, 1992; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Андижон, Ҳаёт, 2002; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Мухаррир, 2011; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015.

“1984” va “Lolazor” romanlarida in’ikos topgan ikki adibning jamiyat konsepsiyasini ilmiy tadqiq qilish va mazkur romanlarda badiiy g’oya va ko’pqatlamlilik dialektikasini o’rganish;

“Molxona” rivoyat-qissasi va “Galatepaga qaytish” asarlarida voqelangan istehzoni adabiy usul sifatida asoslash hamda shu asarlarda ramziylik va komik pafos muammosini tadqiq etish;

ikki adibning olamni falsafiy idrok etish va usluban murakkab obraz yaratish prinsiplari hamda uning badiiy xronotop bilan bog’liqligini ilmiy asoslash;

Jorj Oruell va Murod Muhammad Do’st asarlarida jamiyat konsepsiyasi va ko’pqatlamli tasvir muammosini ilmiy tadqiq etish orqali ijodkorlar asarlarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti sifatida Jorj Oruell hamda Murod Muhammad Do’st asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini badiiy adabiyotda jamiyat konsepsiyasi hamda ko’pqatlamli tasvir uyg’unligining turli milliy kontekstlardagi o’ziga xosligi hamda tipologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, analitik, germevntik, kognitiv-konseptual va psixoanalitik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

har ikkala muallif ijodi badiiy konsepsiyasining mushtarak jihati ular yashagan va ijod qilgan davrdagi ijtimoiy tuzum, mustabid mafkura, tarixiy davr voqeligining ijtimoiy hayotga, inson taqdiriga ta’siri, oila qismati, insonning ozodlik, erkka bo’lgan intilishi, inson ruhiyati mavzularining qiyoslangan asarlar markaziy chizig’ini tashkil etishida namoyon bo’lishi isbotlangan;

ikki xil tarixiy davrda, ikki xil milliy-madaniy kontekstda yashab ijod etgan, ayni vaqtda ijodiy kredosi, uslubi bir-biriga yaqin bo’lgan ikki adib Jorj Oruell va Murod Muhammad Do’stning ijtimoiy voqelikka munosabati oddiy xalq taqdiriga befarq bo’lmaslikni qahramonlarda mujassam etish tamoyilining ustivorligida voqelanishi asoslangan;

“Molxona” va “Galatepaga qaytish” asarlarida ramziylik va komik pafos o’rtasidagi o’zaro uyg’unlik, adabiy asar matnidagi ko’pqatlamlilik, ijodkor g’oyaviy-badiiy niyatining qonuniy hosilasi, ijtimoiy istehzo xunrezlik, ocharchilik, qatag’on, shaxs erkini cheklash, shaxsga sig’inish, shaxssizlik davri oqibatlarini ifodalash orqali shartlanishi aniqlangan;

turli tuzumlarda yashab bir xil ijtimoiy voqelikni tasvirlagan ikki adibning badiiy xronotop yaratish mahorati, polifonik tasvir imkoniyatlari, poetikasining transformatsiyasi, funktsionalligi va unga individual yondashuv tamoyillari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Jamiyat taraqqiyoti uchun ham, badiiy adabiyot uchun ham g’oyat muhim va global muammo sanalmish jamiyat konsepsiyasini, shuningdek, shu mavzuning badiiy talqinida ko’pqatlamli tasvir dialektikasini ingliz va o’zbek adabiyoti materialida fundamental tadqiq etishga bag’ishlangan ushbu dissertasiyaning asosiy tahliliy xulosalari ushbu muammoni

qiyosiy o'rganishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek adabiyotshunosligi fanining taraqqiyot tamoyillarini belgilashda, uning o'ziga xos nazariy yo'nalishini aniqlashdagi qiymati dalillangan;

tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarining o'zbek va ingliz filologiyasi kafedralari talabalari uchun uslubiy va tahliliy material sifatida foydalanish, adabiyotshunoslik nazariyasi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, analitik, germevtik, kognitiv-konseptual va psixoanalitik tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ingliz adibi Jorj Oruell ijodi bilan o'zbek adibi Murod Muhammad Do'st ijodi qiyosiy-tipologik yo'nalishda fundamental ilmiy tadqiq etilgan hamda Jorj Oruell adabiy merosining jahon nasri taraqqiyotida, shuningdek, adibning milliy madaniy kontekstda tutgan o'rniga ilmiy baho berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati olingan natijalar va materiallardan oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti" bo'yicha ma'ruzalar va seminarlarni tayyorlash va o'qitishda, maxsus kurslar o'tishda, darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar yaratishda, hamda o'quv jarayoniga tatbiq qilishda keng va atroflicha foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jorj Oruell va Murod Muhammad Do'st asarlarida jamiyat konsepsiyasi va ko'pqatlamli tasvirni aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

har ikkala muallif ijodi badiiy kontsepsiyasining mushtarak jihati yashagan va ijod qilgan davrdagi ijtimoiy tuzum, mustabid mafkura, tarixiy davr voqeligining ijtimoiy hayotga, inson taqdiriga ta'siri, oila qismati, insonning ozodlik, erkka bo'lgan intilishi, inson ruhiyati mavzularining qiyoslangan asarlar markaziy chizig'ini tashkil etishida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 10-iyundagi №18.01/08-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilari va mutaxassislarining ingliz va o'zbek tillarida jamiyat konsepsiyasi va ko'pqatlamli tasvir haqidagi bilimlar bazasini yanada kengaytirishga asos bo'lib xizmat qilgan;

ikki xil tarixiy davrda, ikki xil milliy-madaniy kontekstda yashab ijod etgan, ayni vaqtda ijodiy kredosi, uslubi bir-biriga yaqin bo'lgan ikki adib Jorj Oruell va Murod Muhammad Do'stning ijtimoiy voqelikka munosabati, oddiy xalq taqdiriga

befarq bo'lmaslikni qahramonlarda mujassam etish tamoyilining ustivorligida voqelanishiga oid ilmiy natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limida 2018-2019 yillarda bajarilgan 54-10/104 raqamli "Mitti yulduz jilolari yoxud Abdulla Oripov izdoshlari huzurida" mavzusidagi loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limining 2023-yil 23-yanvardagi №8-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotchi tomonidan to'plangan materiallardan Jorj Oruell va Murod Muhammad Do'stning ijtimoiy voqelikka munosabati, uni badiiy qayta gavdalandirishdagi mushtarakligi va o'ziga xosligi tavsiflangan.

"Molxona" va "Galatepaga qaytish" asarlarida ramziylik va komik pafos o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, adabiy asar matnidagi ko'pqatlamlilik, ijodkor g'oyaviy-badiiy niyatining qonuniy hosilasi, ijtimoiy istehzo xunrezlik, ocharchilik, qatag'on, shaxs erkini cheklash, shaxsga sig'inish, shaxssizlik davri oqibatlarini ifodalash orqali shartlanishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasi "Oltin voha" radiosining "Jahon adabiyoti" nomli radioeshittirish ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-martdagi №17-05/40-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilgan hamda ilmiy-nazariy dalillarga boy bo'lishi taminlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 2 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 168 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jorj Oruell ijodi va uning jahon madaniy kontekstida tutgan o'rni**" deb nomlangan. Bobning fasllarida Jorj Oruell ijodining jahon va o'zbek adabiyotiga ta'siri va badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari izohlangan.

XX asr jahon adabiyotida o'z o'rni va mavqeiga ega Jorj Oruell ijodi betakror uslub, ramziy-majoziy ifoda, yuksak poetik fikr, ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va ularning badiiy talqini bilan ajralib turadi. Yozuvchining 20 jildidan iborat adabiy

merosi uning nafaqat sermahsul ijodkor ekanligini, o'z davrida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ularning oqibatlarini teran idrok qila olgan faylasuf adibligini ko'rsatadi.

Daho so'z san'atkori asarlarining mundarijasi kuzatilsa, beshta roman, satirik ertak, she'rlar to'plami va to'rt jilddan iborat tanqid va publisistik jurnal borligini ko'ramiz, shuningdek uning asarlari dunyoning 65 tiliga tarjima qilingani, ijodi Angliya va Amerikaning oliy va maktab o'quv dasturlariga kiritilgani hisobga olsak, adibning hayoti va ijodi afsonaga tenglashtirilgani behudaga emasligiga amin bo'lamiz. "Fikr politsiyasi" deb bong urgan ijodkorning o'zi vaqt o'tib, fikrlaydigan odamlarning yorqin timsoliga aylandi.

J.Oruel murakkab davrda yashadi: jahon urushi, fashistlar, ijtimoiy tengsizlik, huquqsizlik, inson sha'ni, qadri va haq-huquqlarining oyoqosti qilinishi, shaxssizlik, soxtakorlik va zulm-zo'ravonlikka asoslangan sotsialistik tuzum, hokimiyat uchun ayovsiz kurash.

Uning asarlariga yarim asr davomida SSSRda qat'iy ta'qiq qo'yilgan, u kitoblari uchun ta'qib qilingan va ularni "qo'ldan qo'lga" o'tkazish, tarqatish ta'qiqlangan. "Erkinlik - qullikdir!", "Urush - tinchlikdir!", "Bilimsizlik - kuchdir!".

Buyuk ingliz yozuvchisi asarlaridagi paradokslar atom bombadek ta'sir kuchiga ega bo'lganligi uchun sobiq xalqlar turmasida unga qarshi hujum boshlangan edi. Adib o'z ijodi bilan odamlar boshi ustida soch tolasiga bog'langan qilichdek omonat turgan mustabidlar tuzumning yuziga ko'zgu tutdi.

Birinchi bobning "Jorj Oruell badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanuvchi ikkinchi faslida J.Oruell va M.M.Do'st asarlarini qiyosiy- tipologik jihatdan solishtirish keng ma'nodagi sevis qobiliyati-bu inson shaxsning eng tabiiy namoyon bo'lishi ekanligi ayonlashadi, har ikki ijodkor ayni shu masalaga urg'u berganligini kuzatish mumkin. Sevgi va kuch paradoksi Jorj Oruellning "1984" romanida to'liq, chuqur ifodalangan. Har qanday distopiyada bo'lgani kabi, bu yerda sevgi va kuch tushunchalari bir xil: hukmdor va fuqarolarning o'zaro sevgisiga qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi sifatida qaraladi.

"1984", "Molxona" asarlari mustabid sovet tuzumi, mustabidlar mafkura yuziga qo'yilgan ko'zgu, bu ko'zguda trixiy-ijtimoiy voqelik, sotsialistik jamiyatning mazmun-mohiyati to'la aks etgan. M.M.Do'st Nazar Yaxshiboyev va Oshno qiyofasida o'zligini unutgan, o'zining yashashdan ma'no maqsadi nima ekanligini anglay olmagan, agar shu haqda o'ylagudek bo'lsa, hatto o'z fikrlaridan qo'rqib ketadigan, Avvalbek singari hamma narsaga tupurgan, betayin, qat'iyatsiz, Olloyor kabi kim nima desa xo'p deb ketaveradigan, irodasiz kishilar obrazini yaratdi. Ularni kommunistik mafkura, mustabid tuzum ana shunday holga keltirgan. Muhsina xonim Oshnoning nomini hayajon va ehtirom bilan tilga olishida ham chuqur ramziy ma'no yashirin. U hokimiyat, mansab, shon-shuhrat va hashamning quliga aylanib ulgurgan. Jorj Oruell asarlarida esa kelajak odamlarining shunday ahvolga tushishi bashorat qilingan.

Bu asarlar insoniyatni ogohlantiruvchi, uni erkin, ozod yashashga intilishi uchun nima qilish keraklini ko'rsatuvchi, haqiqat mangu yengilmas kuch ekanligini anlatuvchi, inson umrining mohiyati to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rishga

undovchi sehrli qo'ng'iroqdir. Shuni qayd etish zarurki, ingliz va o'zbek yozuvchisining sevgi konsepsiyasi talqinida sezilarli farqlar mavjud, buni esa milliy o'ziga xoslik bilan izohlash mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jorj Oruell va Murod Muhammad Do‘st asarlarida tarixiy voqelik badiiy talqini va ko‘pqatlamlilik”** deb nomlangan. Mazkur bobning “Jorj Oruell va Murod Muhammad Do‘st: ijtimoiy-tarixiy voqelikka munosabat va badiiy talqinda mushtaraklik hamda o‘ziga xoslik” deb nomlanuvchi birinchi faslida “Molxona” va “1984” asarlarida SSSRni turli yillarda boshqargan Lenin, Stalin, Xrushchev va boshqa tarixiy shaxslarning obrazi orqali mustabidlar tuzum davrida ro‘y bergan fojialar keltirilgan. “1984” romanida esa yozuvchi masalaga biroz boshqacha yondoshadi. Bosh qahramon Uinston va uning sevgilisi Juliya jamiyatga, inson erkini cheklovchi, haq-huqularini poymol qiluvchi qonunlarga qarshi chiqadilar. Ular erkni, muhabbatni quruq, bo‘m-bo‘sh tiriklikdan afzal ko‘rishadi. Tanlagan yo‘llari halokatli ekanligini anglagan holda pinhona uchrashadilar, hatto o‘zlari uchun alohida xonani ijaraga olishadi jazolash va qatllar uyushtirish bilan shug‘ullanadigan muhabbat vazirligi tomonidan hibsga olinib, dahshatli qiynoqlarga solingan, xo‘rlangan va azoblangan ikki qalb egasi, ozod bo‘lgach yana qayta pinhona uchrashadi va qo‘lga olinib qatl etiladi. Lekin ular jismonan mahv etilsalar ham o‘zlarining haq ekanliklarini, insoniy mehr, muhabbat oldida hech qanday kuch to‘siq bo‘lolmasligini, muhabbatning qudratli kuch ekanligini o‘z o‘limlari bilan isbotlaydilar.

“Galatepaga qaytish” qissasida ijtimoiy-tarixiy voqelik faqatgina siyosat doirasidagina qolib ketmagan.

M.M.Do‘stning Toshpo‘lat G‘aybarov “1984” romanidagi Uinston singari ich-ichdan yolg‘izlanib qolgan, jamiyatdan umidini uzgan, o‘zini anglaydigan, qalbini tushunadigan hamfikr, maslakdosh axtaradi. Biroq ularning ikkalasi ham izlaganini jamiyatdan, zamondan, odamlar orasidan topolmaydi. Toshpo‘latni eng ishongan do‘sti Samad aldaydi. Qobilning uyida Toshpo‘lat Samad va Mazluma (Qobilning xotini)ni fahsh ustida ko‘rgach, do‘stini kaltaklaydi. Shunda Samad alam bilan uning barbod bo‘lgan sevgisi– Irinaning nomusiga tekkanligini aytib yuboradi. Vaholanki, Toshpo‘lat Samadni tug‘ishgan birodari kabi uzoq yillardan beri chin dildan yaxshi ko‘rar, uni hurmat qilardi. Uinstonni esa “birodarlik” a‘zosi, maslakdoshi munofiq va xoin Brayn qamoqqa oladi, og‘ir azoblarga duchor qiladi. Asar oxirida Uinstonni otib o‘ldirishsa, uning sevgilisi Juliya kalamushlarga yem bo‘ladi. Romanda Yaxshiboyev obrazi tipiklashtirilgan, unda sho‘ro amaldorlariga xos xislatlar birlashib, tom ma‘nodagi sovet kishisining, faol partiya a‘zosining qiyofasi yaratilgan badiiylikning o‘zagini “shaxs bilan unga qarama-qarshi turgan tashqi olam juftligi”¹⁰konsepsiyasi tashkil etadi.

Ikkinchi bobning “1984” va “Lolazor” romanlarida ijtimoiy konsepsiya va ko‘pqatlamlilik” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida J.Oruell qalamiga mansub “1984” romanida ilgari surilgan mashhur uch jumla ya‘ni urush-tinchlik, erk-qullik, bilimsizlik-kuch ekanligi haqidagi g‘oya romanning asl mohiyatini kasb etishi tahlilga tortilgan. Yozuvchining ijtimoiy konsepsiyasi bu uning

dunyoqarashi, shaxsiyati bilan bog'liq bo'lib, ijodkor hech qachon o'zidan baland g'oyalar haqida qo'iy qoldiradigan darajada yoza olmaydi. Chunki har qanday adib o'zi qalamga olayotgan voqea-hodisani avvalo qalbida yashaydi, keyin qog'ozga ko'chadi. Shuning uchun badiiy asarlarning saviyasi va kitobxonga ta'siri turlicha. Yozuvchining o'zi yashamagan har qanday asar uning o'zidan uzoqroq umr ko'ra olmaydi. J.Oruell asarlarining siri ham ana shunda.

Sevmagan va nafratlanmaydigan odamlar jamiyat va atrofdagilar uchun juda xavfli, bunday odamlarda hayotiy pozitsiya, chin e'tiqod, maslak bo'lishi ehtimoldan uzoq. Negaki, bu toifadagilar hech nimani rad etmaydi, kim qayoqqa yetaklasa ergashib ketaveradi. Mutaassib, o'z fikriga ega bo'lmagan, qalbi bo'm-bo'sh odamdan yorug'lik chiqmasligi tayin. Bu toifadagilar istalgan paytda xiyonat qilishi ham mumkin. Tayini va tuturig'i bo'lmagan odamlar bilan biror ish bitirish, maqsadga erishish nihoyatda mushkul, ular o'zining huzur-halovatidan bo'lak hech nima haqida bosh qotirmaydi, hatto o'zining qilmishlarini oqlashga, kirdikorlarini vaziyat bilan bog'lab, turli bahonayu vajlar keltirishga urinishadi. Har bir narsaning ziddi bilan yaratilishida inson uchun ulug' ibrat bor. Halol va harom, yaxshi va yomon, sadoqat va xiyonat, do'st va dushmani bir xil ko'radiganlar, duch kelgan to'daga qo'shilib ketadiganlar jamiyat uchun xatarli, chunki ular istalgan paytda pand berishlari mumkin. J.Oruellning "1984" romanidagi Parkinson xuddi shu toifaga mansub bo'lsa, Uinston uning tamomila teskarisi, o'z maqsadi yo'lida hatto o'limdan ham hayiqmaydi. Hatto qachondir qo'lga tushishi muqarrarligini bilsa ham, o'z maslagi, o'z sevgisidan yuz o'girib ketmaydi va shu bilan o'zini kuchli, g'olib his qiladi. Agar e'tiqod chin bo'lsa, u hech qachon mag'lub bo'lmaydi, ehtimol jismoniy jihatdan yengilishi mumkin, halok bo'lishi mumkin, ammo uning ruhida o'sha surur, zavq, hayajon, taassurot, g'oya baribir tirik qoladi.

Tamagir odam xorlanadi va uning topgani yo'qotgani oldida hech nimaga arzimadir. Ta'magirlik insonni pastkashlikka boshlar ekan, uning ruhidagi eng go'zal hislarni o'ldiradi. Har bir narsa o'zidan keyin iz qoldirgani singari biz bilan muloqotga kirishadigan kishilarning ruhiyatidagi yaxshi-yomon hislar bizga ham yuqadi. Xushbo'y va sassiq hidlardan qochib qutulib bo'lmagani kabi yaqinlashayotgan odamlar ziynatidagi ufunatdan qochib qutilishning iloji yo'q.

Biror joyga borish, biror ishni bajarish uchun ma'lum bir istak, muayyan bir xohish, ya'ni sabab kerak. Ochiqqan odamgina ovqatga qo'l uzatadi. Bir joydagi narsalarga bir-biriga munosib va bir-birini taqozo qiladi, odamlar ham. Tasodifan hech narsa yuz bermaydi, chunki dunyoda tasodif yo'q, sabab va oqibat bor, xolos. Ehtiyoj va zarurat bo'lmagan narsalar odamning diqqatini tortmaydi va inson o'zi qiziqmagan narsalar uchun vaqt sarflamaydi.

Nimagadir fido bo'lish uchun unga ishonish shart. Ishonmagan narsasi uchun odam harakat qilmaydi, sevmagan narsasiga intilmaydi. Qattiq sevmagan narsasi uchun hech qachon tavakkal qilmaydi va o'zini qurbon qilmaydi. Inson o'zini bag'ishlashi, fido bo'lishi uchun o'sha narsani hayotidan qattiqroq sevishi lozim. Qimmat buyum undan arzonroq buyumga almashtirilmaydi. Agar almashtirilsa, demak ularning qiymati teng.

Muhabbat qudratli kuch, u insonni yuksaltiradi va qolgan hamma narsani unuttiradi, ammo sevishganlar bu kuch haqida o'ylashmaydi, chunki bu sehr ularning ruhida yashaydi. Sevishmaganlar ham hech qachon uni his qila olishmaydi, negaki sevgi o'zini tanimaydiganlarga begona, ularga ta'sir o'tkazmaydi.

J. Oruellning mashhur "1984" romanida ilgari surilgan yozuvchi konsepsiyasi mana shundan iborat. Urush-tinchlikdir, erk-qullikdir, bilimsizlik– kuchdir. Mana shu uch jumlada adib qalamiga mansub romanining mohiyati o'z aksini topgan.

"Lolazor" romanida ko'pqatlamlilik asarning eng katta yutug'i, deyish mumkin. Romanni badiiy jihatdan yuksalikka ko'tarilishida bu usul o'zini oqlabgina qolmay, uni durdona asarlar qatoriga olib chiqa olgan. Hayot ziddiyatlari keng ko'lamda aks ettirilgan romanda axloqiy-psixologik izlanishlar ham ko'zga tashlanadi. Yaxshiboyevning Zohid bilan birga Oshnoning uyiga borishi, Yaxshiboyev va Oshnoning xonimi o'rtasidagi munozara va ko'chaga chiqqandagi holati ham ramziylik kasb etgan. Nazar Yaxshiboyev ko'chaga chiqqanida Zohid allaqachon samolyotga chiqib, uchib ketgandi. Natijada u yo'ldan taksi ushlab, yana kasalxonaga qaytishga majbur bo'ladi, kelganidan so'ng zambilda olib ketilayotgan jasad Qurbonoyniki ekanligini o'z ko'zi bilan ko'radi. Bularning barchasi jamiyatning tuzalmas kasalga yo'liqqani va umri tugaganligini ko'rsatuvchi ishoralardir.

"Lolazor" romanida Oshno ijod ahlini o'ziga yaqin tutadi, ularga moddiy-ma'naviy jihatdan yordam beradi. Buning sababini bir paytlar Oshnoning o'zi ham badiiy ijod kishisi bo'lganligi bilan izohlash balki to'g'riroqdir. Masalaning ikkinchi bir tomoni ham borki, qadimdan hukmdorlar qalam ahlini o'zlariga yaqin olishgan, bu ular uchun yaxshi, ammo ijodkor uchun aksariyat hollarda fojia bilan yakun topgan. Yaxshiboyev Oshnoni tanimaganida zo'r yozuvchi bo'lishi ham mumkin edi, ammo u o'zidagi iste'dodni shamolga sovuradi. Shon-Shuhrat, martaba, siyosat tufayli iqtidorini barbod qiladi. Bulduruqda barpo etilayotgan bog'ida faqat mevasiz daraxtlarning o'stirilishida uning umr mazmuni hosilsiz ekanligi, faqat soyadan iboratligiga urg'u berilgan.

Ishning **"Molxona" rivoyat-qissasi va "Galatepaga qaytish" asarlarida ijtimoiy istehzo–badiiy uslub sifatida** deb nomlangan uchinchi faslida milliy adabiyotshunoslikda istehzo badiiy uslubning muhim omili sifatida XX asrning so'nggi choragida jiddiy tekshirila boshlanganligi, uning badiiy asardagi o'rni va bajaradigan vazifasi, mazmun-mohiyati, uni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish badiiy asarni tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritilgan.

"Molxona" rivoyat-qissasi va "Galatepaga qaytish" asarlarida ijtimoiy istehzo yozuvchining g'oyaviy-badiiy maqsadini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Gohida molxona boyib borayotganday tuyulardi, holbuki, bu farovonlikning cho'chqalar va ko'ppaklardan boshqa hayvonlarga aloqasi yo'qday edi. Ehtimol, shunday tasavvur ham mavjud ediki, molxonada cho'chqalar va itlar ko'payib ketgan. Albatta, ular ham mehnat qilardi. Ular juda band, tinmay tushuntirardi qichqiroq, ularda molxona ishlarini nazorat qilish va tashkillashtirish

sohasida cheksiz majburiyatlarga ega edi. Ular qilayotgan juda ko'p ishlarni hayvonlar tushunib yetolmas edilar"¹⁰. J.Oruel jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamga mansub odamlarni majoz yo'li bilan tasvirlaydi. Hayvonlar fermasida eng nufuzli sanalgan va alohida imtiyozlarga ega bo'lgan jonivorlar bor, ular: cho'chqalar va itlar. Cho'chqalar – partiyaning vijdotsiz, ikkiyuzlamachi, munofiq, yebto'ymas, hech narsadan hazar qilmaydigan, har qanday tubanlikka tayyor, qorni och qolganda hatto o'z farzandini ham yiydigan vahshiy to'da timsoli. Ular qo'zg'olon ko'tarib, hokimiyatni qo'lga kiritgach qashshoqlik yanada kuchayadi, ish soati ortadi, so'z, fikr erkinligi batamom taqiqlanadi, qarshi chiqqan hayvonlarni itlar burdalab tashlaydi. Mustabidlar tuzum, undagi boshqaruv tizimi va undagi dabdabozlik, soxtakorlik, aldov va zulm-zo'ravonlik bilan hokimiyatni qo'lda saqlab turishda cho'chqalar juda ayyor va shafqatsiz. Ularning shiori: "hamma hayvonlar tengdirlar, biroq ayrim hayvonlar boshqalardan ko'proq tengdirlar".¹¹ Molxona devoriga ilib qo'yilgan tamoyilga kiritilgan bu o'zgartish hech kimni ajablantirmaydi. Negaki, amalda bu narsa allaqachon amalga oshgan edi. Bu ertak emas, bizning 30-40 yil oldingi hayotimiz, xalqimizning kundalik turmush tarzi. Ota-onalarimiz o'z ko'zi bilan ko'rgan, ular yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit.

Xalqlar turmasi deb nom olgan sobiq ittifoq aslida molxona. Undagi barcha haq-huquqlaridan ajralgan, cho'chqalarga bo'ysunib yashashga majbur hayvonlar esa qaramlikda yashayotgan turli millatga mansub erksiz xalqlar. Ular "katta og'a"ning ko'rsatmalariga so'zsiz amal qilishga majbur. Bu millatimiz boshdan kechirgan fojia, milliy mustaqillikka qadar bo'lgan hayot. Xalqni biror fikr bildirishga, biror narsadan norozi bo'lishga, shaxsiy qarashini aytishi mumkin emas. Mabodo haftada bir marta bo'ladigan yig'ilishda kimdir o'z fikrini aytmoqchi bo'lsa, qo'ylar birgalikda jo'rovoz bo'lib to'xtovsiz ma'rab, uni gapirishga, gaplarini boshqalar eshitishga qo'yishmaydi. Qo'ylar– partiyaning malaylari, yugurdaklari, hech narsa haqida o'ylamaydigan, chuqurroq mulohaza yuritmaydigan toifa. Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asaridagi Sobitjon, Sario'zak dashtida o'z onasiga kamondan o'q uzgan manqurt Jo'lomon. Jangda asirlikka tushgach, xotirasidan judo qilingan Jo'lomon xo'jayinidan boshqa hech kimning gapiga quloq solmaydi, hech kimni, hatto onasini ham tanimaydi. Xo'jayinining birov senga yaqinlashsa, uni o'ldir, degan so'ziga amal qilib, uni qutqarish uchun kelgan onasini o'ldiradi. Qo'ylar xuddi mana shunday o'z xotirasidan ajralgan, o'tmishsiz va kelajaksiz yashaga mahkum olomon.

"There was, as Squealer was never tired of explaining, endless work in the supervision and organization of the farm. Much of this work was of a kind that the other animals were too ignorant to understand. For example, Squealer told them that the pigs had to expend enormous labors every day upon mysterious things called "files," "reports," "minutes," and "memoranda". These were large sheets of paper which had to be closely covered with writing, and as soon as they were so covered, they were burnt in the furnace. This was of the highest importance for the welfare of the farm, Squealer said. But still, neither pigs nor dogs produced any

¹⁰ Оруэл Жорж. Молхона. таржимон К.Баҳриев. Т.: НИХОЛ, 2020.90-б

¹¹ Оруэл Жорж. Молхона. Таржимон К.Баҳриев. Т.: НИХОЛ, 2020.94-б

food by their own labor'¹² "Qichqiroq tushuntirardiki, cho'chqalar har kuni statistika, hisobot, qaydnoma va eslatma singari sirli hujjatlar ustida ter to'kadilar. Bu juda katta, zich yozilgan va yozib tugallanganidan so'ng, olovda yoqib yuboriladigan qog'oz varaqlari edi. Molxonaning ishlari shunga bog'liq, deb tushuntirardi qichqiroq. Biroq na cho'chqalar, na ko'ppaklar o'z mehnatlari bilan biror narsa yaratmasdilar; lekin bu jamoaning ishtahasi yuhoday edi'¹³.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Olamni falsafiy idrok etish va usluban murakkab romanlarda mushtaraklik**" deb nomlangan. Urush, ichkilik, muhabbat, oila, shaxs erki, uning haq-huquqlari, razillik, sotqinlik, ikkiyuzlamachilik, pastkashlik– insonga xos bo'lgan oliyjanob va eng tuban sifatlarning barchasi umumlashib roman nomiga ko'chadi– "1984". Asar nomining o'ziyoq ko'pma'noli. U nafaqat tarixiy sana, balki butun boshli jamiyatning tamg'asi. Bu tamg'a ostida ulkan haqiqat mavjud. "Lolazor" romaning nomlanishida ham shunday ko'pma'nolilik bor. Oshno o'zi tug'ilib, voyaga etgan joyga –Bulduruqqa tashrif buyuradi. Biyday dala o'rtasida baland teraklar bir necha soat davomida uni olqishlab, chapak chalib turadi. Shundoqqina minbar atrofida qip-qizil lolalar barq urib turganligi odamning dilini yayratadi. Qalbiga go'zal hislar uyg'otadi, shirin orzular qanot qoqadi. Biroq bularning hammasi yolg'on, soxta, yasama. Teraklarning ildizi yo'q, chunki ular boshqa bir joydan kesib keltirilib, yerga chuqur qazib, joyidan yiqilmaydigan qilib ko'mib qo'yilgan. Ular uzog'i bilan ikki-uch kundan so'ng, qurib-qovjirab qoladi. Lolalar esa tuman markazidan gultuvakda keltirilib, tuvagi bilan birga ustiga tuproq tortilgan. Uchrashuv tugagach bitta-bitta tuvaklar qazib olinadi va olib kelingan joyiga qaytarib olib boriladi. Bularning barchasi sosialistik jamiyatning ramzi, sovet davlatining, partiyanging ertasi, kelajagi yo'q, chunki u yolg'on, ko'zbo'yamachilik asosiga qurilgan. Muallif o'zining g'oyaviy maqsadini juda tabiiy, hayot haqiqatiga mos tarzda ko'rsata olgan. Lolazor aslida lolazor emas, sahro, qurib-qaqshab yotgan kimsasiz biyday dala.

